

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIIY POTENSIALI	38-43
--	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPTION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

Received: 31 August 2025
Accepted: 15 September 2025
Published: 30 September 2025

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF LAND SERVITUDE

Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna

Candidate of Law Tashkent State University of Law

Abstract. The article analyzes the right to limited use of another person's land plot for public needs, which is a novelty in the land legislation of the Republic of Uzbekistan, that is, public easement, the legal procedure for its establishment and implementation. It also highlights that public easement is established not for the interests of the owner of a particular land plot, but for the interests of the public, and is introduced to ensure the interests of the population, local self-government bodies and the state. As a result of the research conducted within the framework of the topic, scientific and theoretical proposals aimed at improving public easement were recommended.

Keywords: legislation, land, easement, public easement, private easement, contract, right, rule, public need.

YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI

Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna

Yuridik fanlar nomzodi Toshkent davlat yuridik universiteti

E-mail: matlubamirr@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi yer qonunchiligida yangilik hisoblangan jamoat ehtiyojlari uchun o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi, ya'ni ommaviy servitut, uni o'rnatish va amalga oshirishning huquqiy tartibi tahliliy o'rganilgan. Shuningdek, ommaviy servitut muayyan yer uchastkasi mulkdori manfaatlari uchun emas, balki jamoat manfaatlari uchun belgilanishi, aholini, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va davlat manfaatlarini ta'minlash uchun joriy qilinishi yoritib berilgan. Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqot natijasida jamoat servitutini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy- nazariy takliflar tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: qonunchilik, yer, servitut, ommaviy servitut, xususiy servitut, shartnoma, huquq, qoida, jamoat ehtiyoji.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N10>

Yer bilan bog'liq munosabatlarni to'g'ri tartibga solinishi davlat va jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda yerdan oqilona, samarali va bozor iqtisodiyoti talablari asosida foydalanishni ta'minlash maqsadida yer qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yerga nisbatan mulk huquqi e'tirof etilib, u bozor aktiviga aylantirildi. Qishloq xo'jalik yerlaridan ijara huquqi asosida foydalanish shartlari va tartibi ham zamon talablari darajasida o'zgartirildi. Yer ajratish masalalarida davlat hokimiyati organlari ishtiroki cheklandi. Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-son Farmoni yer qonunchiligini rivojlanishida va huquqni qo'llash amaliyotida yangi bosqichni boshlab berdi [1]. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 23-oktyabrda qabul qilingan "Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati

bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-871-sonli qonuni [2] bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va Yer kodeksiga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar yer uchastkalarini ijarachilar tomonidan qayta ijaraga berish, yer servitutini amalga oshirish, yerga bo'lgan mulk huquqini bekor qilishga oid yechimini kutayotgan masalalarga oydinlik kiritdi.

Yer qonunchiligidagi o'zgarishlardan biri jamoat ehtiyojlari uchun o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi(ommaviy servitut)ni amalga oshirish tartibi bo'lib, uning ayrim jihatlarini muhokama qilishga harakat qildik. Yer servituti qadimdan yer uchastkalariga ehtiyojni doimiy ortib borishi, yer resurslarini cheklanganligi sharoitida yerdan foydalanishda amaldagi yer egaligini (mulk huquqini va boshqa huquqlarni) saqlagan holda qo'shni yer uchastkalari egalarini yerdan foydalanishga oid manfaatlarini (o'z yer uchastkasiga o'tishini) ta'minlashda kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish maqsadida konstruktiv yechim sifatida vujudga kelgan. Bu esa jura in re aliena (o'zganing mulkiga bo'lgan huquq) ya'ni hozirgi servitut huquqini kelib chiqishiga sabab bo'lgan [3].

Yer servituti qadimgi tushunchasidan zamonaviy "o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi" tushunchasigacha murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lsada, o'z mazmun mohiyatini yo'qotgani yo'q. Bugungi kunda ham jamiyat kishilari orasida o'zgani yeridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj hamon mavjud bo'lib, bu servitut huquqini takomillashtirish zaruriyatini izohlaydi.

Yer huquqi va Fuqarolik huquqi nazariyasida ommaviy va xususiy servitut alohida turlar sifatida e'tirof etiladi [4]. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida asosiy urg'u xususiy servitut qoidalarini o'rnatishga qaratilgan bo'lib, FKning 173-moddasi va Yer kodeksining 30-moddasida o'z ifodasini topgan edi. Ommaviy servitut tushunchasi va uni amalga oshirish tartibi qonunchilikda belgilanmagan edi.

Qonun [6] bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 173-moddasi "Jamoat ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan hollarda servitut qonunga muvofiq tegishli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin (ommaviy servitut)", degan qoida bilan to'ldirildi. FKda belgilangan ommaviy servitutga oid normalar Yer kodeksiga kiritilayotgan 30⁵-modda talablarida kengroq bayon qilingan bo'lib, jamoat ehtiyojlari uchun o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (ommaviy servitut) o'zganing yer uchastkasida geologiya-suratga olish, qidirish, geodeziya va boshqa qidiruv ishlarini amalga oshirish, o'zganing yer uchastkasidan umumiy foydalanishdagi elektr uzatish tarmoqlari, aloqa liniyalari va boshqa liniyalar, truboprovodlar, ichki sug'orish tarmoqlari, muhandislik tarmoqlari hamda boshqa tarmoqlar o'tkazish va ulardan foydalanish maqsadlaridagina belgilanishi mumkinligi ko'rsatildi. Ushbu moddada boshqa maqsadlarda, shuningdek, davlat mulki bo'lmagan bino, inshoot va ko'p yillik dov-daraxtlar joylashgan yer uchastkalariga ommaviy servitut belgilash taqiqlanadi.

Ommaviy servitutni o'rnatish xususiy servitutni o'rnatishdan farq qiladi. Xususiy servitut uni belgilashni talab qilayotgan shaxs bilan o'zga yer uchastkasining egasi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga muvofiq belgilanadi, agar kelishuvga erishilmagan taqdirda, sud qarori bilan ham belgilanishi mumkin. Ommaviy servitut davlat, jamiyat, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va aholining manfaatlarini ta'minlash uchun bevosita qonun va boshqa normativ huquqiy aktlar bilan o'rnatilishi mumkin. Qonun bilan Yer kodeksiga kiritilayotgan 30⁵-moddasining to'rtinchi xat boshisida "ommaviy servitut manfaatdor tashkilotlarning

murojaatlari asosida viloyat va Toshkent shahar hokimining qarori bilan” belgilanishi mustahkamlangan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ommaviy servitutda ko‘chmas mulkdan cheklangan tarzda foydalanish huquqiga ega bo‘lgan aniq subyekt bo‘lmaydi, balki subyektlar doirasi bo‘ladi. Xususiyl servitutda esa foydalanish huquqini taqdim etuvchi va undan foydalanuvchi aniq belgilangan bo‘ladi. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, ommaviy servitut muayyan yer uchastkasi mulkdori manfaatlari uchun emas, balki jamoat manfaatlari uchun belgilanadi. Ommaviy servitutlar aholini, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va davlat manfaatlari ta‘minlash uchun joriy qilinadi. Davlatning ishlab chiqarish, savdo-sotiq faoliyatida intensiv ishtiroki ommaviy servitutlarni vujudga kelishining sabablaridan biri bo‘lib, bunda davlat mustaqil xo‘jalik subyekti sifatida namoyon bo‘ladi [5].

Yer qonunchiligiga kiritilayotgan muhim yangiliklardan yana biri, ommaviy servitut belgilash to‘g‘risidagi qarorni yer fondi toifasidan kelib chiqqan holda tegishli tashkilotlar bilan majburiy tartibda kelishish shartligi hisoblanadi. Unga ko‘ra,

- sug‘oriladigan yerlarda — O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Suv xo‘jaligi vazirligi bilan;
- o‘rmon fondi yerlarida — o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi vakolatli davlat organi bilan;
- tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarda va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarda — tegishli sohalardagi maxsus vakolatli davlat organlari bilan ommaviy servitutni belgilashda kelishish lozim bo‘ladi.

Qonunchilikdagi yangi qoidalaridan yana biri, ommaviy servitut belgilash haqidagi qarorda servitut to‘g‘risidagi shartnomada ko‘rsatilishi lozim bo‘lgan barcha shartlar ko‘rsatilishi kerakligini belgilanishidir. Ya‘ni, FKsiga kiritilgan 173²-moddada servitut shartlari mustahkamlangan. Unga ko‘ra, servitut belgilanganda servitut belgilanayotgan yer uchastkasining maydoni, ushbu yer uchastkasida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari obyektlarini qurish, ulardan foydalanish, ularni ko‘zdan kechirish va ta‘mirlash shartlari, yer fondi toifasidan qat‘i nazar, yer egasiga, yerdan foydalanuvchiga, yer uchastkasining ijarachisiga va (yoki) mulkdoriga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash tartibi, servitut belgilanayotgan yer uchastkasining joriy holati, yer uchastkasini undan belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish zarurligi, servitut uchun haq to‘lash tartibi, shuningdek servitut belgilangan yer uchastkasidan foydalanishdagi cheklovlar ko‘rsatilishi shart.

Yer kodeksiga kiritilgan 30¹-moddada servitut to‘g‘risidagi shartnomaga oid qoidalar aks etgan bo‘lib, unda quyidagi shartlar ko‘rsatilishi kerak:

- servitut belgilanishi kerak bo‘lgan yer uchastkasining kadastr raqami;
- servitutni belgilashning maqsadlari va asoslari;
- shartnoma taraflari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- servitutning amal qilish muddati;
- servitut uchun belgilangan haq miqdori (mavjud bo‘lganda);
- shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari hamda javobgarligi;

belgilangan servitut muddati tugaganidan keyin yer uchastkasini belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish haqidagi servitut majburiyati.

Ommaviy servitut shartlari taraflarning kelishuviga ko'ra yoki ulardan birining talabiga ko'ra sud tartibida o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Fikrimizcha, qonunchilikda ushbu qoidani belgilanishi yer munosabatlari sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini ishonchli tarzda himoya qilishga qaratilgan mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Ommaviy servitut Yer kodeksiga asosan yoki ushbu servitutni belgilash to'g'risidagi qarorning amal qilish muddati tugaganda bekor qilinadi (YEK 30⁵-m). Yer kodeksining 30⁴-moddasiga muvofiq, servitut quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

servitut ishtirokchilarining o'zaro kelishuviga ko'ra;

yer egasining, yerdan foydalanuvchining, yer uchastkalari ijarachisi va mulkdorining yoki servitut kimning manfaatlarini ko'zlab belgilangan bo'lsa, o'sha shaxsning asoslangan talabiga ko'ra;

servitutdan uzoq muddat (kamida uch yil) foydalanilmaganda;

servitutning amal qilish muddati tugaganda;

agar servitut belgilash uchun sabab bo'lib xizmat qilgan asoslar o'z ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa.

Demak, ushbu qoidalar ommaviy servitutni bekor qilish asoslari bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Ommaviy servitut belgilash to'g'risidagi qaror servitut belgilangan yer uchastkasida qurilish-montaj ishlarini boshlash, binolar va inshootlarni qayta qurish, rekonstruksiya qilish huquqini bermaydi. Shuningdek, servitut belgilanishi yer egasini, yerdan foydalanuvchini, yer uchastkasining ijarachisi va mulkdorini ushbu yer uchastkasiga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqidan mahrum etmaydi.

Servitut to'g'risidagi shartnoma davlat ro'yxatiga olinishi lozim va u yer uchastkasi boshqa shaxsga o'tgan taqdirda ham saqlanib qolinadi. Servitut to'g'risidagi shartnomani davlat ro'yxatiga olish O'zbekiston Respublikasining "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi qonuni [7] ning 10-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-avgustdagi 424-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti" [8] asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-871-sonli qonuni bilan Fuqarolik kodeksi va Yer kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar, ommaviy servitutga oid yangi normalar kyeyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan yer munosabatlarini tartibga solishda bozor iqtisodiyoti qonuniyatini yanada kengroq joriy qilishga qaratilgan islohotlarni mantiqiy davomi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Aytish mumkinki, qonunchilikdagi o'zgarishlar yer munosabatlarini tartibga solishda qonun ustuvorligini ta'minlash bilan birga yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlari huquqlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalariga nisbatan xususiy mulkchilik instituti joriy etilishi va mulk huquqining daxlsizligiga oid qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish,

- shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" PF-99-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.06.2023-y., 06/23/99/0403-son
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.10.2023-y., 03/23/871/0797-son
 3. Холмуминов О.Ж. Понятие и особенности земельного сервитута по законодательству Республики Узбекистан// <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-osobennosti-zemelnogo-servituta-po-zakonodatelstvu-respubliki-uzbekistan/viewer>;
 4. Джанкезов, А. А. Правовая природа земельного сервитута / А. А. Джанкезов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 7 (454). — С. 162-165. — URL: <https://moluch.ru/archive/454/100141/> (дата обращения: 29.10.2023)
 5. Юлдашев С.И. Мулк ҳуқуқини чеклаш шакли сифатида сервитут ҳуқуқи тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари. <https://cyberleninka.ru/article/n/mulk-u-u-ini-cheklash-shakli-sifatida-servitut-u-u-i-tushunchasi-va-ziga-hos-hususiyatlari>; Макаров, А. А. Понятие, сущность и основные виды сервитута / А. А. Макаров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 21 (416). — С. 568-570. — URL: <https://moluch.ru/archive/416/92148/> (дата обращения: 30.10.2023); Левицкий А.В., Колесова О.Н. Виды сервитутов по земельному законодательству. MODERN SCIENCE. Научно-информационный издательский центр "Институт стратегических исследований" (Москва) Номер: 2-2 Год: 2020. С.163-166.
 6. "Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-871-sonli qonun.
 7. Yuldashev S.I. Mulk huquqini cheklash shakli sifatida servitut huquqi tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari. <https://cyberleninka.ru/article/n/mulk-u-u-ini-cheklash-shakli-sifatida-servitut-u-u-i-tushunchasi-va-ziga-hos-hususiyatlari>;
 8. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2022-y., 03/22/803/1046-son
 9. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.08.2023-y., 09/23/424/0655-son

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).